O‘zbekiston Respublikasida odam savdosi jinoyati uchun javobgarlikning kuchaytirilishi bir necha bosqichlar yoki davrlarni o‘zida qamrab oladi. Bular asosan uch davr bo‘lib, mustaqillikdan oldingi davr, mustaqillikdan keyingi yigirma yillik hamda 2010-yildan bugungi kungacha bo‘lgan davr. Mustaqillikdan oldin amalda bo‘lgan jinoyat kodeksida odam savdosi jinoyati bo‘lmagan. Lekin boshqa jinoyatlar tarkibida aks etgani haqida yuqorida aytib o‘tdik. Mustaqillikdan keyin ham yangi jinoyat kodeksida bu jinoyat birdaniga o‘z aksini topgani yo‘q. Bir qancha xalqaro hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilinishi va ushbu hujjatlarning qabul qilinishi natijasida huquq tizimi o‘ziga olgan majburiyatlar natijasida ushbu jinoyat alohida jinoyat sifatida e’tirof etilib unga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilandi. Umuman olganda, yuqorida keltirib o‘tilgan uch davr mobaynida Respublikamizning jinoyat qonunchiligida odam savdosi jinoyatiga oid keskin o‘zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi va quyida bular batafsil bayon etiladi.

Asosiy qism

Odam savdosi jinoyatiga oid muhim xalqaro hujjatlar mavjud bo‘lib, ularga 1949-yil 2-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 317(IV)-sonli rezolyutsiyasi bilan ma’qullangan va 1951-yil 25-iyulda kuchga kirgan “Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Konvensiya hamda “Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risida”gi Konvensiyani misol keltirish mumkin. Ushbu ikki yirik hujjat ham odam savdosiga oid masalalarni xalqaro darajada tartibga solishga yo‘naltirilgan bo‘lib, 2003-yil 12-dekabrda “Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Konvensiya, 2008-yil 8-aprelda esa “Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risida”gi Konvensiya mamlakatimiz tomonidan tan olingan. Ushbu jarayon, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro-huquqiy majburiyatlarni qabul qilishi mamlakat uchun odam savdosiga qarshi kurashishda katta umummilliy, siyosiy va xalqaro darajadagi siljish, normativ asos hamda tizimli o‘zgarishlar sababi bo‘ldi, deyish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro konvensiyalarni qabul qilishi milliy huquq tizimining modernizatsiyasi, xalqaro standartlarga moslashuvi hamda jinoyat-huquqiy siyosatning insonparvarlik va huquqni muhofaza qilish tamoyillari asosida takomillashuviga kuchli turtki berdi. Xususan, davlat tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan asosiy hujjatlarga qo‘shilish, eng avvalo, Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT Konvensiyasi hamda uni to‘ldiruvchi Odam savdosining oldini olish, unga chek qo‘yish va uni jazolash to‘g‘risidagi Protokol (Palermo Protokoli) mamlakat jinoyat qonunchiligini tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mazkur xalqaro-huquqiy majburiyatlarni qabul qilish natijasida odam savdosi tushunchasining universal ta’rifi milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi. Palermo

Protokolida belgilangan uch elementli model (harakat – vosita – maqsad) O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida ham o'z aksini topdi (Abdullaev, 2021). Natijada odam savdosi jinoyatining obyektiv va subyektiv tarkibi aniq va tizimli belgilab berildi.

Bu jarayon milliy huquq tizimining quyidagi yo'nalishlarda takomillashuviga olib keldi:

- jinoyat tarkibining xalqaro standartlarga mos ravishda aniqlashtirilishi;
- voyaga yetmaganlar bilan bog'liq alohida kvalifikatsiya belgilarining kiritilishi;
- jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlarining joriy etilishi;
- davlatlararo hamkorlikning huquqiy asoslari mustahkamlanishi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga odam savdosiga oid moddalarning kiritilishi va ularning takomillashtirilishi xalqaro majburiyatlar bilan bevosita bog'liqdir (Karimov, 2021). Dastlab, odam savdosi alohida jinoyat tarkibi sifatida mustahkamlandi va keyinchalik uning dispozitsiyasi xalqaro standartlarga muvofiq ravishda kengaytirildi.

Palermo Protokoliga muvofiq ravishda quyidagi elementlar milliy qonunchilikda aks etdi: harakat (*actus reus*) – yollash, tashish, topshirish, yashirish, qabul qilish; vosita – zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik bilan tahdid qilish, aldash, ishonchni suiiste'mol qilish, zaif holatdan foydalanish; maqsad – ekspluatatsiya (jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, qullik yoki qullikka o'xshash amaliyotlar, a'zolari olib qo'yish va boshqalar). Bu elementlarning qonunchilikda mustahkamlanishi jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonini yengillashtirdi va sud amaliyotida bir xillikni ta'minlashga xizmat qildi. Natijada jinoyat tarkibini isbotlashda xalqaro metodologiya qo'llana boshlandi.

Shuningdek, xalqaro konvensiyalar asosida jinoiy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar (voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etish, uyushgan guruh tomonidan sodir etish, takroran sodir etish va boshqalar) ham aniqlashtirildi. Shuningdek, jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimi shakllantirildi. Xalqaro hamkorlik mexanizmlari mustahkamlandi. Xususan, odam savdosi transmilliy jinoyat hisoblanganligi sababli xalqaro konvensiyalarni qabul qilish davlatlararo hamkorlikni kengaytirish imkonini berdi (Allain, 2018). Interpol hamda Xalqaro migratsiya tashkiloti kabi xalqaro institutlar bilan hamkorlik kuchaydi. Natijada ekstraditsiya jarayonlari soddalashtirildi, jinoyatchilarni qidiruvga berish mexanizmi takomillashtirildi, transchegaraviy tergov amaliyoti yo'lga qo'yildi, ma'lumot almashish tizimi kuchaytirildi. Bu esa jinoyatning latentlik darajasini kamaytirishga va uyushgan jinoyatchilik guruhlariga qarshi samarali kurashishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro konvensiyalarni qabul qilish sud amaliyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sudlar tomonidan jinoyat tarkibini aniqlashda xalqaro hujjatlarda belgilangan mezonlardan foydalanish amaliyoti shakllandi. Shu tariqa, xalqaro konvensiyalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining tizimli transformatsiyasiga olib keldi. Bu jarayon jinoyat-huquqiy siyosatning liberallashtiruvchi, inson huquqlarining ustuvorligi va xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi.

Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha huquq tizimini mustahkamlashga qaratilgan keyingi yirik qadam 2008-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bo'ldi. XXI asr boshlarida odam savdosi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning eng xavfli ko'rinishlaridan biri sifatida xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortdi (Shelley, 2018). Global migratsiya jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, noqonuniy mehnat bozori va jinsiy ekspluatatsiya tarmoqlarining kengayishi mazkur jinoyatni tizimli va murakkab hodisaga aylantirdi. Shu tariqa odam savdosiga qarshi kurashish sohasida milliy qonunchilikni shakllantirish zarurati yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasida ham 2000-yillarning boshlarida fuqarolarning xorijsa ish izlab chiqishi ortishi fonida odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar ko'paydi. Shu bois davlat tomonidan bu sohada maxsus normativ-huquqiy asos yaratish zarurati tug'ildi. Aynan migratsion muammolarning odam savdosi jinoyatlarining ko'payishiga olib kelishi hozirgi kungacha davom etmoqda.

Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining sa'y-harakatlariga qaramay, 2023-yilda faqat 38 400 kishi (umumiy migrantlar sonining 16,5 foizi) qonuniy ish topish yo'llaridan foydalangan. Natijada 141 ta odam savdosi holati ro'y berdi va 193 nafar jabrlanuvchi qayd etildi. Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari O'zbekiston migrantlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha asosiy manzillar bo'ldi. 2020-yilda XMT dunyo bo'ylab migratsiya yo'llarida 4 317 nafar migrantning vafot etgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. 2023-yilga kelib bu raqam deyarli ikki baravar oshib, 8 565 kishiga yetdi. O'zbekistonga kelsak, mas'ul vazirlik ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2020-yilda chet eldan 200 nafardan ortiq vafot etgan fuqarolarning jasadlari vatanga olib kelindi (United Nations Office on Drugs and Crime [UNODC], 2023).

Xalqaro majburiyatlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT Konvensiyasi hamda uni to'ldiruvchi Odam savdosining oldini olish, unga chek qo'yish va uni jazolash to'g'risidagi Protokol (Palermo Protokoli) milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishni talab qildi.

Mazkur omillar O'zbekistonda odam savdosiga qarshi maxsus qonun qabul qilinishi va Jinoyat kodeksiga alohida modda kiritilishiga huquqiy asos bo'ldi. "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun milliy huquq tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Unda jinoyatning oldini olish, aniqlash, fosh etish va jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish o'zaro bog'liq mexanizm sifatida ko'rildi.

Qonunning muhim jihatlaridan biri jabrlanuvchining huquqiy maqomini belgilab berganidadir. Avvalgi davrda odam savdosi qurbonlari ko'pincha ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, yangi qonun ularni himoya subyekti sifatida tan oldi. "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Konvensiya majburiyatlarining O'zbekiston tomonidan bajarilishini ta'minlash maqsadida Jinoyat kodeksining 135-moddasidagi "odamlardan foydalanish uchun ularni yollash" jinoyati o'rniga 2008-yilda yangi tahrirdagi odam savdosi uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. 1959-yilgi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksida bu norma mavjud bo'lmagan. Ushbu moddaning kiritilishi natijasida O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida odam savdosini shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlardan biri sifatida e'tirof etib, mazkur jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlagan davlatlardan biriga aylandi.

2008-yilgi islohotlarning eng muhim natijasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga odam savdosining alohida jinoyat tarkibi sifatida kiritilishi bo'ldi. Shu tariqa mazkur jinoyat mustaqil ijtimoiy xavfli qilmish sifatida e'tirof etildi. Mazkur moddaning kiritilishi bir qator ijobiy natijalarga olib keldi. Xususan, jinoyatni kvalifikatsiya qilishda aniqlik ta'minlandi, sud amaliyotida bir xillik shakllandi hamda uyushgan jinoyatchilik guruhlariga nisbatan qat'iy jazo choralari qo'llash imkoniyati kengaydi. Shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan odam savdosi sodir etilgan hollarda javobgarlikni og'irlashtiruvchi normalar ham mustahkamlandi.

"Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun va Jinoyat kodeksidagi tegishli modda o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llana boshlandi. Qonun profilaktika, himoya

va institutsional mexanizmlarni belgilagan bo'lsa, Jinoyat kodeksi javobgarlik choralarini nazarda tutdi. Natijada normativ-huquqiy tizim kompleks tus oldi, jinoiy ta'qib va ijtimoiy himoya parallel ravishda amalga oshirila boshlandi, davlat organlari faoliyatida muvofiqlashtirish kuchaydi. Mazkur integratsiya jinoyat-huquqiy siyosatning zamonaviy modelini shakllantirdi.

Qonun qabul qilinib, kodeksga alohida modda kiritilgandan so'ng odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha maxsus respublika komissiyasi tashkil etildi, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida maxsus yo'nalish shakllantirildi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi, reabilitatsiya markazlari tashkil etildi.

Amaliy jihatdan ham bir qator natijalarga erishildi. Jumladan, jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichlari oshdi, jabrlanuvchilarni identifikatsiya qilish mexanizmi shakllandi, xalqaro qidiruv va ekstraditsiya jarayonlari takomillashdi, aholining huquqiy xabardorligi oshirildi.

2008-yilda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va Jinoyat kodeksiga odam savdosi alohida jinoyat sifatida kiritilishi O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tub burilish yasadi. Mazkur islohotlar xalqaro standartlarga moslashuvni ta'minlab, jinoyat-huquqiy siyosatning insonparvar va kompleks modelini shakllantirdi.

2015-yilda Jinoyat kodeksining 135-moddasi (Odam savdosi) birinchi qismiga "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan qo'shimcha kiritilib, sanksiya ilk bor kuchaytirildi. Uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirildi.

Jadval

O'zbekiston Respublikasida aniqlangan odam savdosi holatlari (2021–2023)

Yil	Aniqlangan holatlar soni	Jabrlanuvchilarning soni	Ulardan ayollar (%)	Chet el bilan bog'liq holatlar (%)
2021	179	221	65,2	48,6
2022	193	247	67,8	52,1
2023	216	271	70,4	55,9

* (Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2024).

Odam savdosiga nisbatan javobgarlik kuchaytirilganiga qaramasdan, bu jinoyat ko'rsatkichi oshishda davom etgani yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum. Shu sababli oradan 10 yil o'tib, 2025-yilda ham O'zbekistonda odam savdosi jinoyati uchun jazo choralari yanada kuchaytirildi. Bu borada "Odam savdosi jinoyati uchun jazo choralari kuchaytirilayotganligi munosabati bilan Jinoyat kodeksining 135-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, odam savdosi jinoyatini qalbaki hujjatlardan foydalangan holda, shuningdek jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'ygan, yashirgan yoxud yo'q qilib yuborgan holda sodir etganlik uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi. Ilgari mazkur jinoyat uchun 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan edi. Shuningdek, ushbu jinoyat jabrlanuvchining o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi. Avvalgi tahrirda esa ushbu holat uchun 8 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan edi.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasida odam savdosi uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilik o'zgarishlari jinoyat-huquqiy siyosat evolyutsiyasining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi – transmilliy uyushgan jinoyatchilik shakliga aylangan odam savdosiga nisbatan profilaktik va repressiv choralarini kuchaytirish, jabrlanuvchilar huquqlarini samarali himoya qilish hamda jinoyatning latent darajasini kamaytirish.

Odam savdosi bugungi kunda faqat maishiy yoki alohida epizodik jinoyat emas, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, migratsion va kriminologik omillar bilan bog'liq tizimli hodisadir. Global migratsiya jarayonlarining jadallashuvi, noqonuniy mehnat bozori kengayishi va raqamli texnologiyalar orqali yollash mexanizmlarining rivojlanishi mazkur jinoyatning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Shu bois amaldagi jazolarning preventiv ta'siri yetarli emasligi haqidagi ilmiy va amaliy xulosalar jazo siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odam savdosi jinoyati yuqori darajada daromad keltiruvchi va nisbatan yashirin sodir etiladigan jinoyatlar turiga kiradi. U ko'pincha uyushgan guruhlar tomonidan sodir etiladi va bir nechta davlat hududini qamrab oladi.

Jazo choralarining kuchaytirilishi quyidagi kriminologik omillar bilan asoslanadi:

- uyushgan jinoyatchilik omili – odam savdosi ko'pincha barqaror jinoyatchilik tuzilmalari orqali amalga oshiriladi;
- takroriylik darajasi – mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslar yuqori rentabellik sababli uni takror sodir etishga moyil bo'ladi;
- jabrlanuvchilarning ijtimoiy zaifligi – ayollar, voyaga yetmaganlar va mehnat migrantlari asosiy nishon bo'lib qolmoqda;
- yashirinlik (latentlik) – jinoyat ko'pincha oshkor etilmaydi, bu esa jazolarning muqarrarligini susaytiradi.

Mazkur omillar jazo choralarini kuchaytirishni nafaqat repressiv, balki umumiy profilaktik vosita sifatida ham ko'rishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi odam savdosiga qarshi kurashish sohasida qator xalqaro majburiyatlarni olgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT Konvensiyasi hamda Odam savdosining oldini olish, unga chek qo'yish va uni jazolash to'g'risidagi Protokol davlatlardan samarali va mutanosib jazo choralarini belgilashni talab qiladi (Nazarova, 2023).

Jinoyat-huquqiy nazariyada jazoning asosiy maqsadlari ijtimoiy adolatni tiklash, jinoyatchini tuzatish, maxsus va umumiy profilaktika hamda yangi jinoyatlarning oldini olishdan iborat. Jazoni kuchaytirish aynan shu maqsadlarga erishishni ko'zlaydi.

Odam savdosi jinoyatining yuqori ijtimoiy xavfliligi (inson erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilishi) uni og'ir jinoyatlar toifasiga kiritishni asoslaydi. 2025-yilda jazo choralarining kuchaytirilishi aynan jinoyatning obyektiga, ya'ni inson erkinligi va daxlsizligiga yetkaziladigan zarar bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, mazkur jinoyatda ekspluatatsiya maqsadi mavjudligi uni oddiy noqonuniy migratsiya yoki mehnat nizolaridan farqlaydi. Shu bois jinoyatning yuqori ijtimoiy xavfliligi jazoning og'irlashtirilishini talab etdi.

2025-yilda odam savdosi uchun jazo choralarining kuchaytirilishi tasodifiy yoki faqat siyosiy qaror emas, balki kriminologik tahlil, xalqaro majburiyatlar, sud-amaliyoti natijalari va inson huquqlarini himoya qilish tamoyillariga asoslangan mantiqiy huquqiy islohotdir. Mazkur o'zgarishlar jinoyatning yuqori ijtimoiy xavfliligini inobatga olgan holda, jazolarning muqarrarligi va qat'iyligini ta'minlashga qaratilgan.

Xulosa

“O‘zbekistonda odam savdosi uchun javobgarlik evolyutsiyasi” mavzusida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur institutning shakllanishi va rivojlanishi mamlakat jinoyat-huquqiy siyosatining transformatsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Odam savdosi dastlab alohida jinoyat tarkibi sifatida mustaqil e‘tirof etilmagan bo‘lsa, keyinchalik uning transmilliy, uyushgan va yuqori darajada ijtimoiy xavfli jinoyat sifatidagi xususiyatlari e‘tiborga olinib, bosqichma-bosqich maxsus normativ-huquqiy mexanizm shakllantirildi.

O‘zbekistonda odam savdosiga oid javobgarlik evolyutsiyasini shartli ravishda bir necha bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – odam savdosi alohida jinoyat sifatida ajratilmagan davr. Bu davrda mazkur qilmish odam o‘g‘irlash, noqonuniy migratsiya, fohishalikka jalb qilish kabi jinoyatlar tarkibida baholangan. Mazkur yondashuv jinoyatning murakkab va ko‘p elementli tabiatini to‘liq qamrab olmasligiga sabab bo‘lgan.

Ikkinchi bosqich – xalqaro standartlar ta‘sirida normativ asos yaratish davri. O‘zbekiston tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT Konvensiyasi hamda Odam savdosining oldini olish, unga chek qo‘yish va uni jazolash to‘g‘risidagi Protokol (Palermo Protokoli)ga qo‘shilish milliy qonunchilikni tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Uchinchi bosqich – 2008-yilda “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi va Jinoyat kodeksiga odam savdosi alohida jinoyat sifatida kiritilishi. Bu bosqich mazkur jinoyatni mustaqil ijtimoiy xavfli qilmish sifatida e‘tirof etish va jinoiy javobgarlikni aniq belgilash bilan xarakterlanadi.

To‘rtinchi bosqich – 2010–2024-yillarda javobgarlikni takomillashtirish, og‘irlashtiruvchi holatlarni kengaytirish, jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash va 2025-yilda jazo choralarning kuchaytirilishi orqali jinoyat-huquqiy siyosatning qat‘iylashtirilishi. Mazkur bosqichlar javobgarlik evolyutsiyasining izchil va mantiqiy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Odam savdosi jinoyati tarkibining takomillashuvi jinoyat huquqi nazariyasida ham muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Jinoyatning obyektiv tomoni kengaytirilib, quyidagi elementlar tizimli ravishda mustahkamlandi: yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish; zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik bilan tahdid qilish, aldash, ishonchni suiiste‘mol qilish yoki zaif holatdan foydalanish; ekspluatatsiya maqsadi.

Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat sodir etilganda “vosita” elementi talab qilinmasligi kabi xalqaro standartlar implementatsiya qilindi. Bu esa jinoyat tarkibini kvalifikatsiya qilishda aniqlik va barqarorlikni ta‘minladi. Nazariy jihatdan mazkur evolyutsiya jinoyat tarkibining formal va moddiy belgilarini uyg‘unlashtirdi hamda ekspluatatsiya maqsadini markaziy subyektiv belgi sifatida mustahkamladi. Javobgarlik evolyutsiyasi jazo siyosatining bosqichma-bosqich qat‘iylashuvi bilan xarakterlanadi. Dastlabki davrda jazo choralari nisbatan yumshoq bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda jazoning minimal va maksimal muddatlari oshirildi, uyushgan guruh tomonidan sodir etish og‘irlashtiruvchi holat sifatida mustahkamlandi, 2025-yilgi islohotlar esa jinoyatning yuqori ijtimoiy xavfliligini inobatga olgan holda jazolarning muqarrarliligi va qat‘iyligini ta‘minlashga qaratildi.

Evolutsiyaning eng muhim natijalaridan biri – jinoyat-huquqiy siyosatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanishi. Odam savdosi qurbonlari endilikda javobgarlik subyekti emas, balki himoya obyekti sifatida e‘tirof etildi. Odam savdosi uchun javobgarlik

evolyutsiyasi O'zbekiston huquq tizimining xalqaro standartlarga integratsiyalashuv jarayonini aks ettiradi. Xalqaro konvensiyalar talablari milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi, davlatlararo hamkorlik mexanizmlari kuchaytirildi. O'zbekistonda odam savdosi uchun javobgarlik evolyutsiyasi izchil, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, ushbu evolyutsion jarayonning davom etishi ham tabiiydir.

Ushbu ilmiy maqola xulosasida quyidagi ikki taklifni keltirib o'tish lozim.

Birinchisi – jazodan ko'ra profilaktika va jabrlanuvchini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish. Odam savdosiga qarshi kurashishda faqat jinoiy jazolarni kuchaytirish yetarli emas. Evolyutsion yondashuv shuni ko'rsatadiki, samarali tizim profilaktika, erta aniqlash va jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish mexanizmlariga tayanadi. Shu sababli davlat organlari o'rtasida integratsiyalashgan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ijtimoiy xizmatlar, psixologik yordam va huquqiy himoya tizimini kengaytirish zarur. Bu jinoyatning takror sodir etilish xavfini kamaytiradi.


Ikkinchisi – raqamli makonda odam savdosiga qarshi huquqiy choralarni rivojlantirish. Zamonaviy sharoitda odam savdosi ko'pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgani sababli javobgarlik institutini raqamli muhitga moslashtirish dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, kiberjinoyatchilik doirasida maxsus normalarni ishlab chiqish, onlayn platformalarning javobgarligini belgilash hamda dalillarni yig'ishning raqamli usullarini qonuniy mustahkamlash lozim. Bu esa jinoyatni aniqlash va jazolash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

REFERENCES

1. Abdullaev, A. (2021). Odam savdosiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy asoslari [Criminal law foundations of combating human trafficking]. *Review of Law Sciences*, (4), 45–52.
2. Allain, J. (2018). *Slavery in international law: of human exploitation and trafficking*. Martinus Nijhoff Publishers.
3. Al-Bukhari, M. I. (n.d.). *Al-Jami' al-Sahih*. Chief Editorial Board of Encyclopedias.
4. Aronowitz, A. A. (2019). *Human trafficking, human misery: The global trade in human beings*. Praeger Security International.
5. Bales, K. (2016). *Modern slavery: The secret world of 27 million people*. Oneworld Publications.
6. Dubrovina, A. N. (1988). *Rassledovanie pokhishcheniy i podmeny detey* [Investigation of child abduction and child substitution] (V. I. Lavrov, Ed.). Academy of the USSR Ministry of Internal Affairs.
7. Fazilov, I. Y. (2016). *Criminal law and criminological problems of combating human trafficking*. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.
8. Gallagher, A. T. (2017). *The international law of human trafficking*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781139924787>
9. Karimov, M. (2021). Legal foundations of combating human trafficking and their improvement. *Adolat*, 23–31.



10. Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2024). Statistics on crimes related to human trafficking.
11. Nazarova, D. (2023). Social and legal aspects of the crime of human trafficking. *Ilm va Taraqqiyot*, (3).
12. Qur'an Karim. (2017). *The Holy Qur'an and translation of meanings into Uzbek*. Sharq Publishing House.
13. Republic of Uzbekistan. (2020). *Law of the Republic of Uzbekistan "On Combating Human Trafficking"*. <https://lex.uz>
14. Republic of Uzbekistan. (2024). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan* (Current edition). Adolat.
15. Rustambayev, M. H. (2018). *Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan: Crimes against the person. Crimes against peace and security* (Vol. 1). Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan.
16. Rustambayev, M. H. (2019). *Human trafficking: National legislation and foreign experience*. Tashkent State University of Law Publishing House.
17. Saidov, A. (2016). *Human trafficking and combating it: A practical guide for labor migrants*. Baktria Press.
18. Shelley, L. (2018). *Human trafficking: A global perspective*. Cambridge University Press.
19. United Nations General Assembly. (2000). *Protocol to prevent, suppress and punish trafficking in persons, especially women and children, supplementing the United Nations Convention against Transnational Organized Crime*. United Nations. <https://www.unodc.org>
20. United Nations Office on Drugs and Crime. (2022). *Global report on trafficking in persons 2022*. <https://www.unodc.org>
21. United Nations Office on Drugs and Crime. (2023). *Toolkit to combat trafficking in persons*. <https://www.unodc.org>
22. Weitzer, R. (2021). Human trafficking and contemporary slavery. *Annual Review of Sociology*, 47, 1–22. <https://doi.org/10.1146/annurev-soc-090320-121655>
23. Ziogiannis, N. (2020). Criminal law responses to trafficking in human beings. *European Journal of Crime, Criminal Law and Criminal Justice*, 28(2), 123–142. <https://doi.org/10.1163/15718174-02802003>



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).